



OLTARIQ TUMANI QISHLOQ JOY NOMLARINING KELIB CHIQISHI VA GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI

Eshimova Feruzaxon Dilmurodjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti talabasi

Akbarovaferuza46@gmail.com

Anotatsiya: Ushbu maqolada Farg'ona viloyati Oltiariq tumani geografik joy nomlarini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, unda tumandagi qishloq joy nomlarining (toponimlarining) tabiiy geografik xususiyatlari, tarixiy nomlari va ularning kelib chiqishi tarixi ochib berilgan. Tuman toponimlari tabiiy geografik xususiyatiga ko'ra nomlangan xolda o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Farg'ona, Oltiariq, Sertut, Chimyon, Mirorqul, Katput, Povulxon, ariq, Shoximardonsoy, tarixiy nomlar, qishloqlar nomi, geografik xususiyatlar, iqtisodiyoti, aholi.

ПРОИСХОЖДЕНИЕ И ГЕОГРАФИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА НАЗВАНИЙ СЕЛ АЛТАРИКСКОГО РАЙОНА

Аннотация: Данная статья посвящена изучению географической топонимии Алтыарыкского района Ферганской области, в которой раскрываются природно-географические особенности, исторические названия и история их возникновения топонимов (топонимов) сел района. Изучены топонимы района, названные по их природно-географическим особенностям.

Ключевые слова: Фергана, Алтыарик, Сертут, Чимён, Мироркул, Кантут, Повулхан, арык, Шахимардонсой, исторические названия, названия сел, географические особенности, хозяйство, население.

ORIGIN AND GEOGRAPHICAL CHARACTERISTICS NAMES OF VILLAGES OF ALTARIK DISTRICT

Annotation: Dannaya statya posvyashchena izucheniyu geograficheskoy toponymii Altyaryksskogo rayona Ferganskoy oblasti, v kotoroy raskryvayutsya pridrono-geograficheskije osobennosti, istoricheskie nazvaniya i istoriya ix vozniknoveniya toponimov (toponimov) sel rayona. Izucheny toponymy district, nazvannye po ix pridrono-geograficheskim osobennostyam.

Key words: Fergana, Altyarik, Sertut, Chimyon, Mirorkul, Kaptut, Povulkhan, ariq, Shakhimardonsoy, istoricheskie nazvaniya, nazvaniya sel, geografiskie osobennosti, hozyaystvo, naseleni.

Kirish

Oltiariq tumani — Farg'ona viloyatidagi tuman bo'lib, 1926-yil 29 sentabrda tashkil etilgan. Janubdandan Farg'ona, shimoldan Namangan viloyati, g'arb va shimoliy g'arbdan Rishton, Buvayda hamda Bag'dod, shimoliy sharqdan Oxunboboyev, Yozyovon tumanlari



va janubdan Qirg'izistonning Qadamjoy tumani bilan chegaradosh. Maydoni 0,63 ming km². [2] Aholisi 2023 – yilning yanvar oyidagi ma'lumot bo'yicha 220 ming kishini tashkil etadi. Bundan tashqari tumanda 20 ta millat vakillari yashaydi. Oltiariq tumanida 1 ta shahar (Tinchlik), 1 ta shaharcha (Oltiariq), 15 ta qishloq fuqarolari yig'ini (Azimobod, Bo'rbaliq, Jo'rak, Zilxa, Katput, Oltiariq, Oqbo'yra, Povulg'on, Polosoy, Fayziobod, Yangiarab, Yangiqo'rg'on, Qapchig'ay, Qiziltepa, Eskiarab) bor. Markazi — Oltiariq shaharchasi.


Asosiy qisim

Oltiariq tumani Farg'ona vodiysida joylashgan bo'lib geografik o'rni qulay joylashgan. Tuman hududining janubiy adrlar, soylarning yoyilmalari, qumli sho'rxoklardan iborat. Adirlar va adir etaklarining balandligi 500-700 m. Bu yerlar tog'lardan oqib tushadigan kop soylarning qadimiy komglomeratlaridan -So'x sivitasi komplekslaridan tarkib topgan (qalinligi 80-200m). Adirlarning Markaziy Farg'ona tekisliklariga qo'shilib ketgan qanotlari yoyilma korinishida bolib, toshli-shag'alli, gilli va qumoq jinlardan iborat. Ularning hammasi antropogen davrining turli yoshdagi yotqiziqlaridir [1].

Oltiariq tumani joy nomining paydo bo'lishi bo'yicha ko'plab ma'lumotlar bor bo'lib, Oltiariq nomi o'tmishda Shohimardon soyidan oqib kelgan suv hamda Chimiyon qishlog'idan chiqayotgan buloq suvlari hozirgi Oltiariq qishlog'iga yetib kelganda oltita ariqqa, oltita tarmoqqa bo'linib ketgan. Shu boiz bu joy ariqning soniga, miqdoriga qaralgan holda Oltiariq deb atala boshlagan.

Bundan ko'rinadiki, Oltiariq nutqda dastlab ariq nomi sifatida yuzaga kelgan, so'ngra u ariq yonida bunyod bo'lgan qishloqqa nom tarzida ko'chgan. Keyinchalik tuman nomini ifoda qila boshlagan. Oltiariq tumanidagi qishloqlarning ham o'ziga xos kelib chiqish tarixi bo'lib, ularning har biri alohida xususiyatga egadir. Misol qilib aytadigan bo'lsak Eskiarab qishlog'i undagi Kitkonqal'a ham tarixiy ahamiyatga ega.

Shu bilan birga tuman tarkibiga kiruvchi Povulg'on qishlog'i kelib chiqishi bo'yicha ham bir necha taxminlar mavjud. Uning asl kelib chiqishi pok bo'lgan ya'ni har qanday balo qazolar yoxud gunohlardan tozalanish yoki poklanish ma'nosini aks ettiradi. Jo'rak qishlog'ining ham o'ziga xos o'tmishi bor. Jo'rak so'zi Arabiy yoki Forsiyda qumloq joy ma'nosida bo'lib, u qadimda qumloq yer bo'lgan. Shu bilan birga Jo'rak qishlog'ini donishmand keksalar birodar, do'st ma'nosida u yerda yashovchi aholiga nisbatan nom berilgan. Oltiariq qishlog'ining Besh og'ayni mahallasiga ilk bor bir oilaga mansub besh nafar og'a inilar asos solganlar [3].



1-rasm. Oltiariq tumani kartasi

Shu qishloqdagi “Mirorqul” maxallasi esa shu joyning ustalaridan xayotda adolatchi, diyonatli, xudojo‘y, komil shaxs Mirorqul nomli inson nomiga qoyilgan. Jonibekobod qishlog‘iga esa 1939-yil Farg‘ona kanali qurib bitkazilgandan so‘ng asos solindi. Qirg‘izistondan ko‘chib kelgan Jonibek ota Samitov rahbarligidagi odamlar Qamishzor, Xon bunday baland olingan polda suv tarab yerning sho‘riligini yuvish jarayonini shu paytgacha sira kormaganidan bunga g‘oyat qiziqib qoladi. Dexqonni Xon xuzuriga chaqiradilar, Xon uning mashaqqatiga, mexnatiga tan berib va rag‘batlantirib shunday degan ekan: Pol tortib sug‘orishni o‘zingiz o‘ylab topdingiz, bu yaxshiligingiz polingiz ila qolsin Poli Xasan bo‘lib degan ekan. Bu Oltiariq tumaning eng katta Poloson qishlog‘i haqida kichik bir lavxa.

Tumandagi Katput qishlog‘i haqida ham ko‘plab tahminlar mavjud ulardan biriga ko‘ra qishloq atrofida Qadim zamonda butxashlar va ularda toshdan yasalgan butler bulgan. Ularni arablar buzib tashlagan, uzoq yillargacha o‘sha butler saqlanib turgan va ular “katta but “ deb atalgan, qishloqning nomi ham o‘sha so‘zlardan olinib Katput deyiladi rivoyatda.

Tumanda Sertut qishlog‘i ham bor. Sertut deb atalishishining sababi tadqiqotchi N. Oxunov quyidagicha izoxlaydi. Sertut Farg‘ona viloyati Oltariq tumanidagi qishloq. Sertut



qishlog'i o'tmishida o'z nomiga yarasha balx, marvatak kabi Shirin shakar mevali tutlarga, boy soya salqin joy bo'lgan.

Sertut – "tut daraxti ko'p o'sadigan joydagi qishloq manosidadur.

Tumanning Oltiariq deb nomlanishi tarixi quyidagicha. Pomir-Oloy tog' tizmalaridagi abadiy muzliklardan boshlanib Shoximardansoy, vodiy qishlog'iga kelganda ikkiga bo'linadi. Chin qiroq tomonga bo'lingan oqim baland qirtepa va adirlar orasidan yo'l topib oqib kelib Qapchig'ay mavzesida teng 6 tiga bo'lingan. Bu ariqlar hozirda Povulxon, Polosoy, Qapchug'ay, Oltiariq, Yangiqo'rg'on, Jo'rak, Eskiarab qishloqlarini suv bilan taminlaydi. Bu ariqlarga Povulxon, Polosoy, Yangiqo'rg'on, Sertut, Qo'qon ariqlari deb nom berilgan. O'shandan beri bu yurt Oltiariq deb ataladigan bo'ldi[5].

Aytishlaricha Shoximardonsoyni oltita ariqqa bo'lib sug'ariladigan yerlarni ko'playtirish Qo'qon xoni Norbo'tabiy davrida amalga oshirilgan ammo Oltiariq atamasiga qadar har bir qishloq o'z nomi bilan atalgan. Oltiariq deparasida dexqonchilik madaniyati, savdo-sotiq rivojlangan. Ko'pinchalik bu yerlarda savdo karvonlari, xorijiy sayyohlar ko'p bo'ladi.

Masalan o'rta asrlarda Polosonning, hozirgi Oltiariq, Xamza, Marg'ilon, Qamchig'oy yo'lining kesishmasida Xasanpalvon degan odamning katta karvon saroyi bulgan. Bu yerda buyuk ipak yo'li o'tgan, karvonlar to'xtaganlar, ularning o'zlari va otlari uchun yaxshi sharoitlar yaratib berilgan[4].

Tumanning xududidagi Qarchig'oy g'oridan topilgan tosh qurollar ustaxonasi yurtimiz eng qadimda insonlar yashagan joyligini tasdiqlaydi. Tumanda shu va shunga oxshash tarixiy qishloqlar ko'p.

Xulosa: Farg'ona viloyatidagi Oltiariq tumani joy nomlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, tabiiy geografik xususiyatlar bilan bog'liq joy nomlari salmoqli o'rinni egallaydi, bularda esa gidronimlar – suv ob'yektlari nomlari alohida o'rin tutadi, chunki, birinchi navbatda suv ob'yektlari atrofida aholi o'troqlashadi. Biz aytib o'tganimizdek qishloq joy nomlarining kelib chiqishiva geografik jihatdan tarqalishi ham ana shunday omillarga bog'liqligini ko'ramiz. Oltiariq tumani nomining ham kelib chiqishi ham gidronim-suv bilan bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. А. Ибодинов, Ю. Еминов. Олтиариқ тарихидан лавхалар. Farg'ona.1996
2. О'zME . Birinchi jild Toshkent, 2000-y
3. Махмуд Қошғарий. Девони луғатит турк. - Т.; 1960.
4. Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. - Т.: О'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2005. – 79 б.
5. Ҳасанов Х.Х. Географик номлар сири. – Т: Ўзбекистон, 1985. – 117 б.